BAZIDIYALI ZAMBURUG'LARNING AHAMIYATI

Gulzar Atajanova Nagmetovna

Kirish

Bu bo'lim tasnifi juda murakkab bo'lib, hali toliq tugallanmagan. Ushbu sababli ushbu bo‘lim asosan uning tartiblari bo'yicha olimlar orasida raqobat bo'ladi, biroq bazıbir yetakchi yuqori taksonomik ittifoqliklarda ko'rsatiladi. Bazidiomicetlar sinfi 30000 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular ichida bizga eng ma’lum bo‘lgani Qorakuya zamburug‘idir.

Micomicetlar ozuqalangan vaqtida hujayrasinda oqsil emas, balki mochevina, glikogen paydo bo'ladı. Bu o'simliklarda aksincha glyukoza va oqsil hosil bo‘lishiga olib keladi. Va shu asnoda mikomicetlarning o'simlik va hayvonatlar dunyosidan alohidalihi va ularning hujayra devorlarida xitin degan narsasi borligidan dalolat beradi. Mana ushbu belgilari bilan mikomicetlar hayvonatlar dunyosiga yaqinroq turadi.

Mikomicetlar insonlar hayotida alohida o‘ringa ega bo‘lib, barcha organik moddalarni mineral moddalargacha aylantirishdan iborat. Ular tirik organizmlar yoki nabut bo'lgan o'simlik va hayvonlar qoldiqlarini yemirip, ularni parchalab eng ohirgi unum kimyoviy elementlargacha ajratishdan iborat.Bu orqali ular tabiatda moddalar almashish jarayoniga qatnashib, tabiyiy biosanitar vazifasini bajaradi.Sababi, nobut bo‘lgan o‘simlik va hayvon qoldiqlari asta-sekin chiriy boshlaydi.Agar unday bo‘lmaganda olam nobut bo‘lgan organizm qoldiqlariga to‘lib ketgan bo‘lar edi.

Mikomicetlar evolucion o‘zgarishlar natijasida faqat nobud bo‘lgan organizmlarda emas, shu qatori tirik organizmlardaham o‘z faoliyatini ko‘rsatib har hil patologik kasalliklar keltirib chiqaradi.SHu jumladan, antraknoz,fuzarioz, qorakuya, zang, terining zamburug‘ kasalligi va hakozo.

Ba'zi bir mikomicitlar hayotiy jaroyonida insonlar uchun foydali moddalarni - antibiotiklar, organik kislotalar va boshqa birikmalardi hosil qiladi. Va yana mikomicetlarning fermentativ faoliyatiga non va pivo mahsulotlarini ishlab chiqarishda tatbiq qilinadi.

Ijobiy faoliyati bilan bir qatorda mikomicetlar evolucion rivojlanish jarayoni davomida biologik zarar beruvchi asosiy agentlari bo'lib, ular murakkab texnik, radioelektron, optik uskunalar va hattoki yirik qurulmalar, yog'och -taxta, tabi’y va sintetik tola va gazlamalar, to'qimachilik unumlari, teri, qog'oz va kitoblar, plastmassa va plastifikatorlar, rezina, neft maxsulotlari, ayniqsa benzin,kerosin, lak va bo'yoqli qoplamalarni yemiradi va hatto metall va metall konstrukciyalardı ham biokorroziyaga uchratadı. Butunlay havo muhitida va daraxtlarda o'simlik va hayvonotlar mahsulotlarini chiritadi, o'simliklarda har xil hastaliklarni hosil qilib, qishloq xo‘jaligiga katta ziyon tekkizadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda o'simliklarning mikomicet bilan kasallanishi juda yuqori darajaga yetib, oziq-ovqat sohasiga, havoning kislorod bilan táminlanishiga katta ta'sir tekkizmoqda. Misol uchun, dekorativ daraxtlarda har hil mikomicetlarning joylashib parazitlik etishi ularning bargining fotosintez hosil qilish jarayonini pasaytirishiga va buning sababidan havoda kislorod miqdorining kemayishiga olib kelyapti. Bundan boshqada mikomicet sababli daraxtlarda fitoftoroz rivoji sababidan kartoshka mahsulotining yarmi yoki undan ham ko'plab yo‘qolishi, pomidor bo'lsa butunlay hosil bermay qurib qolishiham mumkin.

Qorakuya kasalligi- bazidomicet teleytosporalari qo'zg'atadi. O'simliklarning yaproqlari va mevalarida, biroz ko'tarilgan epidermis ostida, marjonga o'xshash tuzilgan, chiziqcha kulrangli nuqtalar shaklida bo‘lib, uning ichidan teliosporalardan iborat bo'lgan qora kukun chiqadi. Barcha o‘simliklarda barg bilan birgalikda zamburug‘ sporalari ham o'sadi va uzunligi bir nechta santimetr bo'lgan chiziq shaklida rivojlanadi. Pustulalar tushgan yaproqlarining uchlari bujmayib

qoladi.Qorakuya tuproq va yer ustki o‘simliklarga katta ziyon beradi va asonlikcha chiqib ketmaydi.Tajribada bazidiyali zamburug‘lar o‘simlikning ildizigacha yetib borib ildizdagi uglevodlarni o‘ziga shimib oladi va ko‘payadi.Natijada o‘simlikni yuqori qismiga bazidiyali suv va biroz mineral moddalar kam o‘tishi hisobiga barg va poyalar o‘sishdan ortda qoladi.Bu o‘simlikning vegataciyasiga jiddiy zarar tegishini bildiradi.Bazidiyalar nafaqat o‘simlik balki inson organizmigaham zarar berishi mumkun.

